

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: YAPON VA O‘ZBEK TILLARIDA “GUL” VA U BILAN
BOG’LIQ RAMZLAR

Bajardi: Filologiya va tillarni o‘qitish
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Abdurahimova D.X_____

Ilmiy rahbar: “Yapon filologiyasi” kafedrası
dotsenti Sugano Reiko_____

Toshkent – 2015

MUNDARIJA :

KIRISH	3
I BOB. METAFORA TUSHUNCHASINING TAHLILI	8
1.1 Konsept va kontseptuallashuv	8
1.2 Metafora bilan konseptning bog'liqligi	9
1.3 Konseptuallashgan metafora	11
II BOB “KOKINVAKASHU” VA ZAMONAVIY HAIKULARDA	
“GUL”NING MA’NOVIY TAHLILI	13
2.1 Yaponiyaga gulning kirib kelishi tarixi	13
2.2 “Kokinvakashu” she’riy to’plamida “gul” ning metafora sifatida ishlatilishi	17
2.3 Zamonaviy haikularda “gul” tushunchasining tahlili	24
III BOB O’ZBEK VA YAPON SHE’RIYATIDA	
“GUL”METAFORASI QIYOSI	30
3.1 O’zbek tilida “gul” metaforasi	30
3.2 Yapon va o’zbek tilidagi “gul”ning qiyosi	33
XULOSA	36
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	38

KIRISH

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali manoyon bo'ladi bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi singgan. Ona tili-bu millatnig ruhidir¹".

Islom KARIMOV

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ertangi kun uchun mutaxassislar tayyorlashning yo'l-yo'riqlarini belgilab bergan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da tarbiya va ta'limni yuqori darajaga ko'tarish, millat ma'naviyat va bilimdonligini oshirish, xalq ta'limning insoniy-gumanitar xususiyatlari to'liq ta'minlashini, ilg'or pedagogik, texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq qilish ko'zda tutilgan. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunning ustuvor vazifasidir².

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy hayotning barcha jabhalari tub burilish yasaydigan voqealar yuz bergani singari ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi, ayniqsa, tilshunoslik faniga munosabat tubdan o'zgargani bugungi kunda barcha mutaxassislar tomonidan qiziqish bilan qayd qilinib kelinmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Yaponiya mamlakatlarining hamkorlik munosabatlari kengayib, endilikda nafaqat siyosiy balki ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va boshqa sohalarda ham faoliyat olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi madaniy munosabatlar o'zining yuqori bosqichiga ko'tarildi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch T.:Ma'naviyat,2008,83-bet

² Karimov I.A. "Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat" O'zbekiston , 2006, 98-bet

Oxirgi 20 yil ichida, O'zbekistonda yapon tilini o'rganuvchilar soni sezilarli darajada o'sib kelayotgani quvonarli holdir. Hozirgi kunda yapon tili jahonning 130 ta davlatda o'rganilib, O'zbekiston bu borada o'quvchilar soni jihatidan 35 o'rinda turadi. Bu dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida ikki mamlakat iqtisodiy, madaniy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Ikki davlat o'rtasida aloqalarning rivojlanib borishi til o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Yapon va o'zbek tillari gap qurilishi jihatidan bir-biriga yaqin tillardir. Ammo, til faqat gapdan iborat emas. Balki shu gaplarning kerakli vaziyatda ishlatila olishi bilan tilning o'ziga xosligini yaratadi. Tilning o'ziga xosligini belgilab beruvchi omil esa, shu xalq madaniyati, fikrlash tarzi va jamiyati bilan bog'liqdir.

Til bir qobiqda qolmay, davr talabi, jamiyatdagi rivojlanish, insonlarning tafakkuridagi o'zgarishlarga mos ravishda til ham shakllanib boradi. Tildagi bunday o'zgarishlarga so'z ma'nolarining kengayishi va torayishi, yangicha tarzda qo'llanila boshlanishi, yangi so'zlarning yaratilishi yoki chet tilidan o'zlashishi kabi hodisalarda ko'rishimiz mumkin. Ushbu jarayon tilshunoslikning leksikologiya bo'limi bilan bog'liq.

Leksikologiya (ot. grek. *lexikos* - so'zga oid va *logos* - ta'limot) tilning lug'at tarkibini, leksikasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi.

Leksikologiyani o'rganish obyekti so'z hisoblansa, o'rganish predmeti uning quyidagi jihatlari:

- a) lisonning asosiy lug'aviy birligi sifatida leksema muammosi, leksik birlik tiplari;
- b) til lug'at tarkibi strukturasi;
- c) lug'at tarkibining boyishi va taraqqiyoti;
- d) leksik birliklarning tildan tashqaridagi borliq bilan o'zaro munosabati³.

³ ABDULLAYEVA SARVINOZ "Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarining leksik-semantik xususiyatlari "

Leksikologiyada bir ma’nodlilik va ko’p ma’nodlilik hodisasi, so’zning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari, qo’llanish darajasiga ko’ra umumiy iste’mol va chegaralangan leksika kabilar o’rganiladi. Leksikologiya tilning so’z boyligi, ma’nosi va ma’no taraqqiyoti kabi masalalarni o’rganadi.

Ayniqsa, ma’no ko’chirish, ya’ni biror-bir so’zni metafora sifatida qo’llash ham tilni boyitishda eng ko’p uchraydigan til hodisasidir. Lekin bu jarayon har bir tilda o’ziga xos ravishda amalga oshiriladi. Chunki ma’no ko’chirishda inson tasavvuri, uning tafakkuri muhim ahamiyatga ega. Tafakkur va tasavvur, dunyoqarash esa barcha jamiyatlarda bir xil emas. Masalan, “gul” leksemasining o’z ma’nosi “o’simlik”ni bildiradi. O’zbek tilida “gul” tushunchasi ko’chma ma’noda “go’zal qiz”, “yor” ma’nolarida ham qo’llanilsa, yapon tilida “gul” tushunchasi “o’tkinchilik” ma’nosini ham bildiradi. Bundan ko’rinadiki, har bir davlatda mavjud bo’lgan, o’z ma’nosi o’simlik bo’lmish “gul” tushunchasi o’simlik ma’nosidagina emas, balki majoziy ma’noda turli xil ma’nolarni ifodalashi mumkin.

Metafora badiiy adabiyotda ko’p uchrashiga qaramay, til hodisasi bo’lganligi sababli tilshunoslik fanining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda o’zbek tili va boshqa tillardagi metaforaning qiyosiy tadqiqoti ushbu tillar orasidagi o’xshash va farqli tomonlarini aniqlashdagi dolzarb masalalardan biri bo’lmoqda. Shu sababli yapon va o’zbek tilidagi metaforalarni o’rganish muhim ahamiyatga egadir.

BMI ning o’rganilganlik darajasi. BMI ning nazariy qismiga oid ilmiy ishlar, ya’ni metafora mavzusi bilan ko’plab tilshunos olimlar shug’ullanib kelmoqda. Xususan, yevropalik olimlar George Lakoff va Mark Jonhson, yapon olimlaridan Kazumi Taniguchi, Masaaki Yamanashi va boshqalar, o’zbek olimlaridan M.Mirtojiyev va boshqa tilshunos olimlarni keltirish mumkin. Bundan tashqari, ilmiy dissertatsiyalarda ham ushbu mavzu keng yoritilmoqda.

Lekin, yuqoridagi nazariy qarashlarga asosalanib o’zbek va boshqa tillardagi

metaforalarni solishtirma tarzida tadqiq etish kam. Xususan, yapon va o'zbek tillarida “gul” metaforasining qiyosiy tahlili mavjud emas.

BMI ning maqsad va vazifalari. Ushbu BMI dan ko'zlangan asosiy maqsad – yapon tilidagi qadimgi davr va bugungi kunda “gul” tushunchasi qanday ko'chma ma'nolarda qo'llanilayotganini, ular orasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlash, shu bilan birga yapon va o'zbek tilidagi “gul” tushunchasi qiyoslab, ularning metafora sifatidagi ma'no kengayishiga ta'sir etuvchi omillarni taqqoslashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagilar **BMI ning vazifalarini** tashkil etadi:

- Metafora tushunchasi va xususiyatlarini tahlil qilish;
- Yapon madaniyatida gullarning o'rnini aniqlash;
- O'rta asrlarga oid 「古今和歌集」 (“Konkinvakashu”) she'riy to'plami va zamonaviy haikulardagi “gul”so'zining ishlatilishi, ma'no ko'chishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- O'zbek tili va yapon tilidagi “gul” tushunchasining metafora sifatida qo'llanilishning o'ziga xos xususiyatlarini qiyoslash;
- Yapon va o'zbek tilida “gul” tushunchasining ko'chma ma'nolarini aniqlagan holda xulosalar berish;

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot ishining ob'yekti yapon va o'zbek tilidagi metafora, ma'noviy kengayishga ta'sir etuvchi omillar o'rganish va o'ziga xos jihatlarini aniqlashdir. Ishning predmeti esa, yapon she'riy to'plami “Kokinvakashu” va zamonaviy haikular, o'zbek tilidagi mumtoz she'riyati, g'azal va ruboiylar misolida “gul” tushunchasini qanday ma'nolarda kelganini tahlil qilish.

BMIning metodologik va nazariy asoslari. Mazkur bitiruv malakaviy ishida Kazumi Taniguchi⁴, Chie Fukada⁵, Hiroshi Nakano⁶, Qobuljonova G⁷ va

⁴谷口一美「認知意味論の新展開」2003年8月15日 研究社

⁵深田智、仲本康一郎「概念化と意味の世界」2008年5月30日 研究社

⁶中野弘三「意味論」2012年8月30日 朝倉邦造

⁷ Qobuljonova G.K “Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini”

boshqalarning ilmiy ishlariga tayanadi.

BMI ning amaliy ahamiyati. Ushbu BMI ilmiy ishning ahamiyati shundaki, bu ish yapon tili o'rganuvchilariga yapon tilidagi "gul"ning o'z ma'nosidan boshqa yana qanday ma'nolarni ifodalashi mumkinligini tushunishda yordam beradi. Bundan tashqari, she'r va matnlarda "gul" metafora sifatida kelsa ham uni tushunishda xatolikka yo'l qo'ymaslik, bir-biridan farqini ajrata olishga zamin yaratadi.

BMI ning tarkibi. Ushbu BMI kirish, asosiy qismning uch bobi, yetti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va iborat.

I BOB. METAFORA TUSHUNCHASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1.1 Konsept va kontseptuallashuv

Har bir tilda lug'aviy ma'noga ega so'zlar va lug'aviy ma'nodan kengaygan holda yangi ma'noga ega bo'ladigan so'zlar mavjud.

Hiroshi Nakano (2012) har bir so'zda asl, lug'aviy ma'nosi bilan birga matndagi mavzu, holat ta'sirida paydo bo'lgan yangi ma'no bo'ladi, deb ta'kidlagan. Mana shu yangi ma'no paydo bo'lish jarayonida tilning o'ziga xosligini belgilab beruvchi konsept yuzaga keladi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda "konsept" atamasi ko'plab tilshunoslarning tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Konsept o'zi nima?

Konsept – bu tafakkur obrazi bo'lib, til belgilarini shakllanishida, tildagi tushunchalarni ifodalashni anglatadi⁸.

Hiroshi Nakano ta'riflashicha, konsept bu narsa va hodisalarni guruhlariga bo'lib anglaydigan tafakkur orqali paydo bo'lib, tafakkur narsa va hodisalarning o'ziga xosligini unutgan holda o'xshashlik, mohiyatni tasvirlash orqali vujudga keladi. Shu konsept tasvirlayotgan jarayon kontseptuallashuv deb ataladi.

Chie Fukada (2008) kontseptuallashuvga quyidagicha ta'rif beradi. Kontseptuallashuv bu narsa va hodisalarni ongda aks ettiruvchi jarayon. Biz har kuni sezgi, hissiyot, matn va holatni his qilish qobiliyati kabilarga tayanib, turli vaziyatlarni har xil usulda tahlil qilishimiz, deb yozadi.

Kazumi Taniguchi (2003)ga ko'ra, so'z ma'nosi nafaqat tashqi dunyoni obyektiv tasvirlaydi, balki so'zlovchi tomonidan kontseptual tashqi dunyoni o'z holicha belgilar bilan ajratadi deydi. Chuning uchun "haqiqat" (truth) ham obyektiv tasvirlash bo'lmay, so'zlovchining hissiy tasavvuridagi kontseptualizatsiya jarayoni sodir bo'ladi. Bundan tushunishimiz mumkinki, so'z ma'nosi

⁸ И. Ю. Никишина "Понятие 'концепт' в когнитивной лингвистике" 2001

so'zlovchining ruhiy holati, tajribaga asoslanib konseptuallashadi va nutqga ko'chadi.

1.2 Metafora bilan konseptning bog'liqligi

Stern (1931) ma'no o'zgarishi jarayonini 7 ga bo'ladi va shulardan biri sifatida ma'no ko'chish ((regular) transfer) , ya'ni metafora orqali so'z ma'nosini o'zgarishini keltiradi⁹.

Metaforaning o'zi nima?

Metafora – obyektiv (yoki subyektiv) borliqdagi o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lmish mutanosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi o'rnida qo'llanilishi¹⁰. Metafora asosida nom ko'chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma'nodagi o'xshashligiga asoslanadi.

Metafora nominatsiya jarayonida muhim o'rin tutishiga qaramay, u shu kunga qadar ko'proq badiiy vosita sifatida adabiyotshunoslarning diqqatini jalb qilib keldi. Lekin har qanday badiiy ifoda lingvistik vosita yordamida amalga oshiriladi. Shunday ekan, badiiy nutq tarkibidagi ko'chimlar muayyan lingvistik qonuniyatlar asosida maydonga keladi. Shuning uchun ham ular faqat adabiyotshunoslikninggina emas, balki tilshunoslikning ham tekshirish obyekti sanaladi.

Metaforaga berilgan ta'riflardan uni yondosh hodisalar bilan qo'shib yuborgan holatlar ko'p uchraydi.

Masalan, E. Kassirer metaforaga quyidagicha ta'rif beradi: “Metaforani bir tasavvur nomini unga mutanosib qandaydir belgiga ega bo'lgan yoki u bilan qandaydir bilvostita “analogiya”larni nazarda tutuvchi boshqa soha – boshqa tasavvurga ko'chirish deb tasavvur qilish mumkin”.

Ta'rifdan ko'rinadiki, E.Kassirer metafora asosida o'xshashliknigina

⁹深田智「概念化と意味の世界」2008年8-9-bet

¹⁰ Qobuljonova G.K “Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini” 33-bet

ko'rmaydi, balki umuman har qanday "analogiya"larni nazarda tutadi. Natijada metafora tushunchasi ostiga metonimiya va sinekdoxa ham kiritiladi. Chunki nomi ko'chayotgan va nomni qabul qilayotgan predmetlararo belgining tabiati izohlanmaydi: (o'xshashlikmi, bog'liqlikmi, butun qismlikmi...) shuning uchun nom ko'chishning bir necha xil belgiga asoslanganligi bilan farqlanuvchi turlari chatishib ketadi¹¹.

Chie Fukada "Inson tasavvurining bir qismi bir tajriba bilan yana boshqa tajriba orasidagi o'xshashlikni ajratib, bir hodisa orqali boshqasini tushunish degan tafakkur jarayoniga asoslangan holat, til hodisasi metafora deb ataladi. Metafora taqqoslash qobiliyati va taqqoslash mezonlariga bog'liq tasavvur jarayoni bilan aloqador" deb ta'kidlaydi. Nima asosida o'xshashlikni topish so'zlovchining subyektiv tahlil jarayoni bilan bog'liq bo'ladi". Ushbu ta'rifdan metafora jarayonida so'zlovchining tasavvur qobiliyati va mavzuga oid subyektiv tahlili muhim degan xulosaga kelinadi. Buni yapon vaka¹² va haikularida¹³ shoirning tasavvur olami va hissiyotlari sezilib turishidan ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Kazumi Taniguchi metaforaning an'anaviy ta'rifini quyidagicha izohlaydi. "Metafora umumiylikka asoslangan o'xshatish. Bir xil o'xshashlikga qarab to'g'ridan-tog'ri o'xshatishdan farqli ravishda, "dek" (like...) kabi qo'shimlardan foydalanmagani uchun yashirin o'xshatish deb ham ataladi". Ya'ni narsaning xususiyatini boshqasiga ko'chiradi. Masalan,

(1) ほっぺたはりんごだ。 (Olma yuzli)

Bunda yuzning qizilligini olmaning xususiyati bilan bog'lagan holda olmaga ko'chiradi.

Lakoff va Johnson (1980) nazariyasida metafora va metonomiya til

¹¹ Qobuljonova G.K "Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini" 17-bet

¹² Vaka – "yapon qo'shiqlari" degan ma'noni bildiradi. O'rta asrlardagi she'riy jarn.

¹³ Haiku – yapon she'riy janri. 5-7-5 shaklida yozilgan qisqa she'rlar.

muammolaridan konsept muammolariga kiradi deb ta'kidlaydi. Metafora bir tushunchani olib, unga xos xususiyatlarni boshq tushunchaga ko'chiradi, deb ta'kidlab o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, metafora so'zlovchining tasavvur qobiliyati, subyektiv tahlil, umumiy o'xshashlikni ajratib oladi va ma'no ko'chirish jarayonida so'zlovchining tafakkuri ham muhim hisoblanadi.

1.3 Konseptuallashtirish metafora

Lakoff va Johnson (1980) faqatgina o'xshashlik metafora asosini tashkil etmaydi, degan xulosani beradi. Metafora nafaqat tilda, balki bizning hayotiy tajriba va dunyoqarashimiz, harakatlarimiz asosida paydo bo'ladi. "Bizning tafakkur qilish sistemamizning o'zi ma'no ko'chirishga moslashgan", deb ta'kidlagan.

Zamonaviy qarashlarda metaforaga tushunish, kategoriyalash, konseptuallashtirish, baholash va dunyoni tushuntirish vositasi sifatida qaraladi.

Kazumi Taniguchining nazariyasiga ko'ra ham "konseptuallashtirish metafora insonning tajribasi asosida paydo bo'lib, til, ayniqsa "ma'no"ning ishlatilishi kengayishi, uning o'rniga "tajriba"ning vazifasini kuchaytiradi".

Bir so'z bilan aytganda, konseptuallashtirish metafora asosini so'zlovchining tajribasi tashkil etadi.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar:

- Konsept narsa hodisalarni guruhlariga ajratuvchi tafakkur asosida paydo bo'lib, umumiy o'xshashlikni ajratib olishda ishtirok etadi. Shu konsept tasvirlayotgan jarayon konseptuallashtirish deb ataladi.
- so'z ma'nosi nafaqat tashqi dunyoni obyektiv tasvirlaydi, balki so'zlovchi tomonidan konseptual tashqi dunyoni o'z holicha belgilar bilan ajratadi

➤ Inson tasavvurining bir qismi bir tajriba bilan yana boshqa tajriba orasidagi o'xshashlikni ajratib, bir hodisa orqali boshqasini tushunish degan tafakkur jarayoniga asoslangan holat, til hodisasi metafora deb ataladi.

➤ konseptuallashtirilgan metafora insonning tajribasi asosida paydo bo'lib, til, ayniqsa "ma'no"ning ishlatilishi kengayishi, uning o'rniga "tajriba"ning vazifasini kuchaytiradi

II BOB “KOKINVAKASHU” VA ZAMONAVIY HAIKULARDA “GUL”NING MA’NOVIY TAHLILI

2.1 Yaponiyaga gulning kirib kelishi tarixi

Ushbu bitiruv malakaviy ishining tahlil qismiga kirishdan oldin, avvalambor, yapon xalqi gullar bilan qanday munosabatda bo’lishi haqida to’xtalib o’tish o’rinli deb o’ylaymiz va buning tarixini ham ko’rib chiqamiz.

“こっぽにか(Nipponika)” jurnali jurnalisti Yoshimizu Kohei tomonidanda bosib chiqarilgan “Yaponlar gullar bilan uyg’un bo’lib yashaydi” nomli maqolada Yaponiyaga gullarning kirib kelish tarixi va shuning asosida madaniyatning shakllanishi batafsil yoritib berilgan. Quyida ushbu gullarning tarixi haqidagi misollarni keltirib o’tmoqchimiz.

Yaponiya o’zining go’zal tabiatiga ega bo’lib, yilning to’rt faslida turli xil ajoyib gullar ochiladi. Qadimdan yaponlar gullar ochilishi bilan ana shu faslning o’ziga xosligini his qilib yashab kelishgan. Yaponiyaning go’zal tabiati va insonlarning turmush tarzidagi yaqinlik hozirda ham uyg’unligini saqlab kelmoqda. Yapon millatida gul bilan bog’liq madaniyatlarning shakllanishi bir qancha tarixiy bosqichlarga ega. Quyida shular haqida to’xtalib o’tamiz.

Birinchisi, gul va kichik daraxtlardan foydalangan holda Xudoga bag’ishlangan bayramdir. Yaponiyada Yangi yil bayrami arafasida uy darvozasi yonidagi qarag’ay daraxti bezatiladi. Bu ushbu yangi yilda osmondan tushib keluvchi Xudoni kutib olish maqsadida amalga oshiriladi. Yil davomida yam-yashil bo’lib turuvchi qarag’ay daraxti uy darvozasi yonida chiroyli qilib bezatilib qo’yilishi ham o’ziga yarasha tarixga egadir. Ya’ni, yangi yil xudosi aslida tog’ xudosi hisoblanib, dehqonchilik mavsumi kelganida tog’dan tushib kelib, ekin maydoni xudosi aylanadi degan afsona mavjud.

Bahor fasli kirib kelgach, Yaponiyaning har bir viloyatida joylashgan sinto ibodatxonalarida bahor gullarini qarshi olish bayrami nishonlanadi. Bu bayram har yili gullar ochilishi bilan tarqaluvchi turli kasalliklarni oldini olish maqsadida nishonlanib kelgan. Kyotoning Imayagi ibodatxonasida nishonladigan ushbu bayramda “yomon jinlarni haydash” deb nomlangan raqsni ijro etuvchi bolalar turli gullardan iborat gulchambarlarni boshlariga kiyib olishadi. Bu bayram mo’jizaviy kuchlarga ega bo’lib, turli bahor kasalliklardan saqlovchi Xudolarni chaqirishga xizmat qiladi deb aqida mavjud bo’lgan. Mana shunday gul va yashil daraxtlarning bo’y cho’zishi yangi kelayotgan yilda to’kin sokinlikni ta’minlaydi deb ishonilgan.

Ikkinchisi, buddaviylik dini orqali yetib kelgan ta’sir hisoblanadi. VI asr boshlaridan Yaponiyada buddaviylik dini keng yoyila boshlaydi va buddaviylik ibodatxonalarida Buddani ulug’lash maqsadida gul tuvakka gullarni o’tqazib, gul yaproqlarini yo’lga sochish marosimi o’tkazilgan. Bugungi kunga qadar, Naraning Kusushi ibodatxonasida nishonlanib kelayotgan Shunie tadbiri “gullar sayli” deb nomlanadi. Ushbu saylga bayramga tashrif buyurganlar 10dan ortiq gul yaproqlaridan gulchambar yasab, ibodatxona atrofini bezatishadi. Buddaviylik dinining keng yoyilishi bilan bir qatorda ibodatxona va bayramdagina emas, balki har bir yapon uylarida ertalabdan kechgacha gullarni o’stirib, Buddaga bo’lgan hurmatini e’tirof etib kelishgan.

Uchinchisi, yapon xalqining ijtimoiy hayotida alohida o’rin tutuvchi gul madaniyati tarixi xususida fikr yuritamiz. Aslida, gul madaniyatining keng yoyilishi X asrga borib taqaladi. Ya’ni, Heiyan davridagi Kyotoda yashovchi zodagonlar gul madaniyatiga asos solishgan. Saroylarda yil davomida turli bayramlar tashkil etilar, ana shu tadbirlarda asosan gullar saroylarga alohida chiroy baxshida etar edi. Ya’ni zodagonlarning turmush tarzida ham, fasl o’zgarishlarida ham, tabiat va gullar mujassamligi alohida o’rin tutgan. X asr boshlarida imperator buyurug’i bilan asar holiga keltirilgan “Kokinvakashu” she’riy to’plam asosini 4 fasl va muhabbat

mavzusidagi she'rlar tashkil etib, 4 faslga oid she'rlarda gullar haqida ko'p yozilgan. Hatto muhabbat she'rlarida ham hissiyot va ma'shuqa gulga o'xshatilganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, XI asr boshlarida Seisho Nagon tomonidan yaratilgan "Makurano soshi" asarida ham yo'laklarda go'zal qilib bezatilgan sakura gullari va ularni qay tarzda joylashgani haqida yozib o'tilgan. Bu o'sha davrdan boshlab, zodagon xonadonlarida gullar bezatuvchi madaniyat boshlanganligini anglatadi.

Bu davrda zodagonlar keng pol bilan qoplangan uylarda yashar edi. Xona ichida budda haykallari va budda sur'atlari gullar bilan bezatilib qo'yilgan va undan rohatlanish maqsadida, "Makurano soshi" asarida ta'riflanganidek, gullar bog' qarshisidagi yo'laklarga chiroyli qilib bezatilib qo'yilar edi. Gullarni zodagonlar xonalarida bezatilishi yapon jamiyatiga gul madaniyating kirib kelishida katta xissa qo'shgan.

Heiyan davrida nishonlab kelingan turli ko'ngilochar tadbirlar, asosan, zodagonlarning xonadonlarida nishonlar edi. Yapon jamiyatida samuraylarning mavqei kuchaygan XV asrga kelib, tadbirlarni nishonlash madaniyatida o'zgarish yuz berdi. Endi samuraylar zodagonlarni o'z uyida kutib ola boshladi. Ya'ni, xonaning markaziga peshxon qo'yilar va gul solingan guldona bilan xonalarni bezash madaniyati yuzaga kela boshladi. Yaponlarning xona chetidagi peshxonda gullar bilan bezatilgan buddaning sur'ati qo'yilardi. XV asrning oxirlariga kelib, xonadonlar gullar va chet davlatlardan keltirilgan jihozlar orqali bezatish usuli keng yoyila boshlandi. Bu orqali mehmonlarga gullar va qimmatbaxo jihozlangan xonadonlarni ko'z-ko'z qilish maqsad qilib olinar edi.

Keyinchalik, gullarni o'stirish va parvarishlar san'ati va usullari o'zgarib, shisha idishlarda gullarni yanada go'zal qilib o'stirish madaniyati keng yoyila boshlandi. Xudoga bag'ishlangan gullar, budda haykalini bezatiladigan gullar hamda tomosha qilish uchun yetishtiriladigan gullar bir butunlikni tashkil qilishi

yapon jamiyatida “Ikebana” san’atini vujudga keltirildi. XVII asrga kelib, Yaponiyada 「園芸」 “enげy”- gullarni go’zal bezatish san’ati vujudga keldi. Bu san’at turi syogunlarning qiziqishlari natijasida vujudga kelgan bo’lib, qisqa davr mobaynida Yaponiya bo’ylab tarqala boshlaydi. Ya’ni, yuqori tabaqali samuraylar, savdogarlar, o’rta tabaqali samuraylar boshlab oddiy aholi o’rtasida ham “enげy” gul bezatish san’ati keng yoyildi.

Shu davrdan boshlab, 「花見」 “hanami”- sakura daraxti gullarini tomosha qilish madaniyati ham vujudga kela boshladi.

Edo davrida keng tarqalgan “enげi” gul bezatish san’ati va “hanami” turli xil gul navlarining ko’payishiga sabab bo’ldi va insonlar o’rtasida gulga bo’lgan muhabbatni kuchayishiga olib keldi. Bularning barchasi “ikebana”ning rivoji va xalq orasida keng yoyilishiga zamin yaratdi.

Yuqoridagi maqoladan ko’rinib turganidek, yapon gul madaniyati paydo bo’lishi buddaviylik dinining ta’sirida paydo bo’lib, davrlar o’tishi bilan xudoga yo’llangan gullar uylarni bezatish va shu orqali gullardan zavqlanish odati paydo bo’lgan. Bir so’z bilan aytganda, yapon gul madaniyati o’zining chuqur tarixiy ildiziga ega ekanligi aniq bo’ldi..

2.2 “Kokinvakashu” she’riy to’plamida “gul” ning metafora sifatida ishlatilishi

Ushbu qismda “gul” so’zining umumiy mohiyati, xususiyatidan kelib chiqqan holda ma’nodan qanday kengayish yuz berishi mumkinligini quyidagi 20ta vaka misolida tahlil qilinadi.

Dastlab quyidagi vakada qo’llanilgan “gul” so’zining ko’chma ma’nolariga to’xtalib o’tamiz.

- 1. 「年ふればよはひは老いぬしかはあれど花をし見れば物思ひもなし」。

Bu yerda ishlatilgan「花」“gul” so’zi「娘」“qizim” ma’nosida metaforaga uchragan. “Gul” chiroyli bo’lib, ko’rgan odamga quvonch baxsh etadi, qari ota-ona uchun ham “yosh qizi” gul kabi ko’ringanligi, xursandchilik omili bo’lganligi har ikkovining umumiy xususiyati hisoblanadi.

- 2. 「今日来ずは明日は雪とぞ降りなまし消えずはありとも花と見ましや」。

「今日来ず明日は雪とぞ降り」 “Bugun bormasam ertaga qor yog’adi” degan jumladan aynan “gul” so’zi “ma’shuqa” ma’nosini ifodalayotganini anglashimiz mumkin. 「花と見ましや」 jumlasini aynan “men sen gulni ma’shuqam sifatida ko’ra olamanmi?” ma’noni anglatadi. O’zbek mumtoz adabiyotida “gul” – ma’shuqa, “bulbul” – oshiq sifatida ma’no ko’chganini kuzatganimiz kabi, ushbu vakada ham “gul” ni ayni ma’shuqa ma’nosida ko’ramiz.

- 3. 「梓弓春の山辺を超えくれば道もさりあへず花ぞ散りける」。

Bu yerda 「花」“gul” so’zi 「女性」 “qiz bola” ga o’xshatilmoqda. 「女性の数の多さ」 “Ayolning soni ko’pligi”, 「花ぞ散りける」 “gulning to’kilishi” jumlasini bilan berilmoqda. 「散る」 (to’kilmoq) so’zi yapon adabiyotida “yo’q bo’lmoq” ma’nosida qo’llanilishi ko’p uchraydi, lekin bu o’rinda aynan mohiyatan “ko’p” degan mazmunni ifodalagan.

- 4. 「とどむべきものとはなしにはかなくも散る花ごとにたぐふ心か」。

Ushbu vakada 「とどむべきものとはなしに」 “to’xtatib bo’lmas”, 「散る花」 “to’kilayotgan gul” jumlasini orqali “gulni to’kilishdan to’xtatila olinmagani kabi ayolni ham bir kun ketishidan to’xtatib bo’lmaydi”, degan ma’no ni ifodalamoqda. Ya’ni ayol va gul xarakter jihatidan o’xshash degan fikrni bildiradi.. Aynan shu

o'rinda "gul" metaforasi sifatida "ayol" ma'nosida kengayadi. Bu kabi "qiz", "ma'shuqa", "ayol" obrazini ifodalashda "gul" so'zining qo'llanishi, umumiy bir nom ostida aytadigan bo'lsak, "yosh ayol" metaforasi sifatida ko'ramiz.

Biz bilamizki, "gul" so'zi turli xil tillarda "yosh ayol" ma'nosini ifodalab keladigan holatlar ko'p. Buning sababi sifatida "gul" hamda "yosh ayol" ni birlashtiruvchi mohiyat, har ikkovining ham asosiy belgisi "go'zallik, chiroyli" ekanligida deb fikr qilinadi. Masalan, "Yukiko ishxonamizning guli" jumlasida gul so'zi aynan asl ma'noda ishlatiluvchi "gul" ma'nosida qo'llanilmayotgan bo'lsa-da, mohiyatan hamda mazmunan asl ma'nosini butunlay yo'qotmagan.

- 5. 「谷風にとくる氷のひまごとに打ちいづる波や春の初花」。

Bu vakada 「波」 "to'lqin" so'zi 「氷の間から流れ出した」 "muzlar orasidan suv yorib chiqdi" degan jumla orqali "to'lqin" ni 「初花」 "ilk ochilgan gul" ya'ni, "bahor elchisi" ma'nosida ma'noviy kengaygan deyish mumkin.

- 6. 「花の香を風のたよりにたぐへてぞ驚さそふしるべにはやる」

「花の香」 (gul ifori) "bahor ifori", "bahorga keldi" degan o'xshatishga asoslanib, "bahor kelganini qushlarga bildirish uchun gul iforini yubordim" degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, 「花」 "gul" so'zi "bahor bahor elchisi" ma'nosini bildirmoqda. Metaforada o'xshashlikdan tashqari so'zlovchi mansub bo'lgan jamiyatda tafakkur qilish, madaniyat, tarix, atrof-muhitning ta'siri ham muhim omil hisoblanadi. Xuddi shu o'rinda shoirning yapon jamiyatiga mansubligi va yaponlarda fasllar o'zgarishi va u bilan bog'liq tasavvurni hisobga olish muhimdir.

Ushbu vakadagi 「花」 (gul) ume daraxti guli bo'lib, bahor elchisi hisoblanadi. Bu ikkita sabab bilan izohlanadi:

1. Heiyan davrida yanvar hamda mart oylari bahor oylari sifatida aytilgan¹⁴.
2. Ume daraxti fevral oyining oxirlarida gullaganligi sababli, sovuq qishning tugashi sifatida qabul qilishgan.

Ume guli bahor elchisi ekanligini Sugavara Michizanening quyidagi haikusida ham ko'rishimiz mumkin.

東風ふかばにほひよこせよ梅の花

Ya'ni, sharqdan bahor shamoli esa boshlaganda gullaring iforini yubor menga ume.

東風＝「こち」(kochi) deb o'qilib, bahor yaqinlashganda sharqdan esadigan shamol.

- 7. 「咲く花はちくさながらにあだなれど誰かは春をうらみはてたる」

Bu vakada 「咲く花」 “gullagan gul”, 「ちくさ」 “gullarning rangi”, 「あだなれど」 “tez to'kilib ketish” so'zlari bilan birga qo'llanilib, “ochilgan gul to'kilishi oson”, degan ma'noni ifodalab, ma'nosi kengaygan holda 「人の心もかわりやすい」 “insonning o'zgaruvchan qalbi” ma'nosida ham keladi. Ya'ni, ushbu holatda Lakoff va Johnson(1980) tomonidan keltirilgan yaponlarning hayotiy tajribasi asosidagi metafora deb hisoblash mumkin.

- 8. 「花見れば心さへにぞ移りける色にはいでじ人もこそ知れ」

Bu yerda 「花」 “gul” 「移りける色」 “rangini o'zgartirish” orqali

「花は変化する」 “gul o'zgaruvchan” degan ma'no kelib chiqadi. Bundan tashqari,

「心さへに」 “qalbim kabi” jumlasidan 「私の心も変わる」 “mening qalbim ham o'zgaradi” degan ma'no kelib chiqib, “gul” bilan “inson qalbi”ning o'xshashligi

¹⁴国語教育プロジェクト編集「新国語便覧」p.162

keltirilgan. Bu ham Lakoff va Johnson (1980) tomonidan keltirilgan o'xshash mohiyatlarni tajriba asosida ma'no ko'chirishning konpetuallashgan metafora hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan 7,8-vakalar misolida, gul har doim bir xil holatda bo'lmasligi va inson qalbi ham doimiy o'zgarishda bo'lishi mohiyatan bir-biriga o'xshash. Ya'ni, "gul"ning doim bir xil ko'rinishda turmasligi xususiyatiga ko'ra uni "qalb"ning "kayfiyat, hissiyot ta'sirida o'zgarib turish" xususiyati bilan bog'lagan holda "o'zgaruvchanlik" tushunchasi bilan umumiylikka ega degan xulosaga kelinadi. Shuning uchun, 「花」 "gul" 「人の心の変わりやすさ」 "insonning o'zgaruvchan qalbi" metaforasi bo'lib ishlatiladi.

● 9. 「霞立ち木の芽もはるの雪降れば花なき花ぞ散りける」

Bunda 「花なき」「花ぞ散りける」 so'z birikmalari kalit so'zi sifatida kelib, 「まだ咲いていない花が散っている」 "hali gullar ochilishga ulgurmay to'kilmoqda" degan ma'noda kelgan. Ya'ni, ushbu holatda "yerga gilamdek to'kilgan gul" va "qor" ning tasavvurda bir-biriga o'xshash tarzda shakllanishi sababli, "gul" "qor" ma'nosini ifodalamoqda. Inson ongida qay holatda aks etishini tahlil qilsak, <gul> → <gul yaproqlari> → <oq> → <yerni qoplagan> → <to'kilgan> va natijada <qor> degan tasavvur jarayoni yuz beradi. Bu ham umumiy o'xshashlikka asoslangan metafora hisoblanadi.

● 10. 「桜散る花の所は春ながら雪ぞ降りつつ消えがてにする」

Bu vakada 「花」 "gul" 「解けない雪」 "erimas qor" ma'nosida kelmoqda. Ya'ni, 「桜散る花」 "sakuraning to'kilishi", 「雪ぞ降りつつ」 "yog'ayotgan qor" va 「消えがてにする」 "o'chmas" jummalari kalit so'z bo'lib, "to'kilayotgan sakura guli" ni "yog'ayotgan, ammo erimas qor" deb ifodalamoqda. Ushbu "gul"ni Lakoff

va Johnson(1980) tomonidan taklif qilingan tajriba asosidagi metafora deb atash mumkin.

● 11. 「駒並めていざ見にゆかむ故里は雪とのみこそ花は散るらめ」

Bu yerda 「雪とのみこそ」 “qor kabi” va 「花は散るらめ」 “gul to’kilmoqda” so’zi orqali inson ongida aks etishi qiyin bo’lmagan tasavvurga asoslangan o’xshashlik orqali metafora, ya’ni “qor” mohiyatini “gul”ga ko’chirish kuzatilmoqda.

● 12. 「冬ながら空より花の散りくるは雲のあなたは春にやあるらむ」

Ushbu vakada ham “gul” “qor” ma’nosini ifodalab kelmoqda. Hayotda bu jarayonni quyidagicha aks etadi: qish osmonidan qor yog’moqda. Lekin shoir “yog’ayotgan qor” ning o’rniga “to’kilayotgan gul” so’zidan foydalanadi. Ya’ni: qish osmonidan gul to’kilmoqda. Gulning mayda yaproqlari va qor uchqunlari bir-biriga shaklan yaqin bo’lib, bu jarayon hayotiy tajribada ko’p kuzatilgani sababli tasavvur qilish oson degan xulosaga kelindi.

● 13. 「冬こもり思ひかけぬを木の間より花と見るまで雪ぞ降りける」

Bu yerda 「冬こもり」 “uyqudagi daraxtlar”, 「花と見るまで」 “gul to’kildimi deb o’ylagudek”, 「雪ぞ降りける」 “qor yog’moqda” jummalari orqali “gul” bilan “qor” mohiyatan bir xil degan fikr yuritilmoqda. Ya’ni, bu jarayonda “gul” va “qor” “mayda va oq” degan umumiy tushuncha orqali bog’langan deyish mumkin.

● 14. 「白雪の降りしく時はみよしのの山下風に風に花ぞ散りける」

Bu vakada 「白雪の降り」 “yog’ayotgan oppoq qor”, 「よしのの山」 “Yoshino tog’i”, 「風に花ぞ散りける」 “shamol tufayli to’kilayotgan gul” so’zlari orqali “qor” “gul” metaforasi bo’lib keldi deyish mumkin. Ya’ni, “yog’ayotgan qor” va “to’kilayotgan gul” ning har ikkisi inson hayoti davomida kuzatadigan jarayon bo’lib,

xuddi shu tajriba asosida ma'no ko'chirish hodisasi yuz beradi.

Yuqoridagi 9, 10, 11, 12, 13, 14-misollarga asoslanib, 「散る花」 “gul to'kilishi”, aniqroq aytganda, “to'kilayotgan gul” yog'ayotgan, ammo erimaydigan qorga o'xshab ko'rinadi. Ayniqsa, oq sakura to'kilib yotganida “qor” deb o'ylash mumkin. “Qor” ning mohiyati “gul”ga ko'chirish asosida hayotiy tajriba yotadi, degan xulosaga kelish mumkin.

- 15. 「うつせみの世にも似たるか花ざくら咲くに見しまにかつ散りけり」

Ushbu vakada 「うつせみの世にも似たる」 “inson hayotiga o'xshagani kabi” jumlasini bilan 「花かつ散りけり」 “gul ham nihoyat to'kiladi” degani ma'no bilan birga kelib, “inson hayoti kabi sakura hayoti ham bir kun tugaydi” degan ma'noda kelgan. Bundan ko'rinadiki, “gul” to'kilib yo'q bo'ladi, ya'ni “o'tkinchilik” ma'nosiga kengayganini kuzatishimiz mumkin.

- 16. 「枝よりもあだに散りにし花なれば落ちて水みづの泡うぶとこそなれ」

Bu yerda 「花」 “gul” 「水みづの泡うぶとこそなれ」 “suv pufagi bo'lib” so'zi bilan birga kelib, 「散ってしまったら水みづの泡うぶのようになる」 “to'kilgandan keyin suv pufagiga o'xshab qoladi” degan ma'noda foydalanilgan. “Suv pufagi” davomiy bo'lmagani, tezda yorilib yo'q bolib ketish xususiyatiga ega. Aynan shu xususiyat orqali, gul to'kilgandan keyin yo'qlikga aylanadi, degan xususiyati yuzaga chiqadi. “Gul” bilan “suv pufagi” qisqa vatda yo'q bo'lish xususiyati mohiyatan o'xshash bo'lib, “o'tkinchilik” ma'nosida metafora sifatida ishlatiladi degan xulosaga kelinadi.

- 17. 「久方の光のどけき春はるの日に静心なく花はなの散るらむ」

「春の日に静心なく花の散る」 “bahor kuni sokin to’kilayotgan gul”, ya’ni, bahor gullar faslida gulning to’kilishiuning umri qisqa ekanligini tasdiqlamoqda. “Umri qisqa” degani uning “o’tkinchiligi” ni bildiradi. Shu mohiyatning o’xshashligi asosida “gul” “o’tkinchilik” ma’nosiga ko’chirilgan.

● 18. 「散りぬればのちはあくたになる花を思ひ知らずも迷ふてふかな」

「散りぬればあくたになる花」 degani “to’kilganidan so’ng changga aylanuvchi gul” ma’nosini ifodalab, bunda ham “gul”ning “o’tkinchilik” ma’nosiga ko’chirilishga sabab bo’ladi. Ya’ni, bunda <gul> →<to’kiladi> →<changga aylanadi> jarayoni natijadasi tafakkurda <o’tkinchi> degan xulosa paydo bo’ladi.

● 19. 「花の色はただひとさかり漕げれどもかへすがへすぞ露は染める」

「花の色」 “gul rangi” va 「露は染める」 “shabnam bo’yadi” degan so’zning birga qo’llanilish, gul har doim chiroyliligicha qolmaydi, degan ma’noni o’zida jamlaydi. Yanada aniqroq aytganda, “go’zallik o’tkinchi” ma’noni anglatuvchi tafakkur jarayoni natijasida “o’tkinchilik” metaforasi bo’lib keldi.

● 20. 「世の中の人の心は花染めの移ろひやすき色にぞありける」

Erkak va ayol qalbi shabnam ta’sirida rangi o’zgargan gul kabi tezda sovuq qoladi, ammo u go’zal va o’tkinchidir. Aynan shu vakada “gul”ning “o’tkinchilik” ma’nosini ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu vakada keltirilgan “gul” “insonning o’zgaruvchan qalbi” degan ma’nosida ham qabul qilish mumkin.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, “gul”ning to’kilib yo’q bo’lish mohiyati uning “o’tkinchilik” mohiyatini ifodalaydi va ma’nosi kengayadi. Bundan tashqari, sakura guli gullash muddati qisqa bo’lib, haqiqatdan o’tkinchi degan tasavvurni shakllantiradi. Buddaviylikdagi o’tkinchilik go’yasi sakura gulini “o’tkinchilik”

ma'nosida ishlatilishi bilan bog'liq degan xulosa ham mavjud¹⁵.

Xulosa qilib aytganda, “Kokinvakashu” she'riy to'plamida “gul” tushunchasi “ayol”, “bahor elchisi”, “qor”, “insonning o'zgaruvchan qalbi” va “o'tkinchilik” degan ma'nolarda metafora sifatida ishlatilgani aniqlandi.

2.3 Zamonaviy haikularda “gul” so'zining tahlili

Ushbu qismda zamonaviy haikularda “Gul” so'zi qanday ma'noda ishlatilib, qay tarzda ma'no kengayishi yuz berganini 1 bobda berilgan metafora va konseptual metafora nazariyalariga asoslanib tahlil qilinadi. BIMda 2006-yildan 2014-yil oralig'ida「花のまわりみち」ga tanlab olingan haikular va Matsuo Bashoning 「奥の細道」 asaridagi haikulardan foydalaniladi.

● 1. 散る花の命も見せるまわりみち (吉川 美佐子)

Ushbu haikuda 「散る花の命」 ya'ni “to'kilayotgan gul umri” so'z birikmasidan “gulda ham hayot bo'ladi” degan tasavvur paydo bo'lib, ungaga asoslangan konseptuallashuv yuz bermoqda. Gulning ham umri bo'lsa, u insonga o'xshab qachondir vafot etadi. Aynan shu o'xshashlika asoslanib, “Gul” “o'tkinchilik” ma'nosida metafora sifatida ishlatilmoqda.

● 2. 手庇を越へ舞ひ来たる花吹雪 (長尾 眞理子)

Bu yerda 「花吹雪」 “gul qorli bo'roni” jumlasida gul va qor bir vaqtda foydalanilmoqda. Ya'ni, “qor” va “gul yaproqlari” asta – sekin o'ynoqlab tushishini shoir ko'z oldigan keltirib, ma'no ko'chirgan degan xulosaga kelish mumkin.

● 3. 花冷を誘ふ雨となりにけり (山岡 祥子)

¹⁵いろは歌 www.buddhism.ne.jp

Sakura gullaydigan faslda yomg'ir ko'p yog'ganligi sababli, bu yerda "gul" so'zi "sovuqni chaqiruvchi" degan ma'noda ishlatiladi. Ya'ni, bu jarayonda tushuncha va tasavvur quyidagicha bo'ladi: 「花」 "gul" → 「雨」 "yomg'ir" → 「春なのに寒い」 "bahor bo'lishiga qaramay sovuq" degan tafakkur jarayoni sodir beradi. Natijada 「花」 ya'ni "gul" so'zining yangi ma'nosi paydo bo'ladi. Bunga shoirning subyektiv hissiyoti ham sabab bo'ladi deyish mumkin.

● 4. 楚々とした花一葉がふとダブリ (吉川 徳子)

Bu yerda 「花」 "gul" "美" "go'zallik" metaforasi bo'lib kelmoqda. 「楚々とした花」 jumlasida ushbu fikr asosi bo'la oladi. Shu bilan birga, 「花一葉がふとダブリ」 gapda 「花の一葉」 "gul bargalari" "individual inson" sifatida ma'no ifodalaydi deyish ham mumkin. Chunki gul barglari inson kabi bir – biridan farq qilib, bir-biridan mustaqil bo'ladi.

● 5. 感嘆のあとみな無口花の下 (河野 路子)

Ushbu haikuda 「花」 ya'ni "gul" so'zi 「感嘆」 ya'ni "hayratlanib maqtash" so'zi bilan birga ishlatilishidan "go'zallik" ma'nosini ifodalamoqda degan xulosaga kelish mumkin. Bu jarayon metaforaning hissiy tasavvur bilan bog'liq holatda yuz beradi. Ya'ni "gul" "go'zallik" timsolini ifodalaydi.

● 6. 手を打てば枝震わせて花吹雪 (山本 博とし)

Haikuning 「枝震わせて花吹雪」 (daraxt shoxini qimirlatsa gul bo'roni) qismi "to'kilayotgan gul" ni "qor bo'roni" ga o'xshatayotganiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, <gul shoxi> → <silkinish> → <to'kilayotgan gullar> → <qor bo'roni> kabi tafakkur jarayoni yuz berib, umumiy o'xshashlikka asoslangan metafora yuzaga keladi.

● 7. 雲一つなき青空や花吹雪 (亀井 朝子)

Bu yerda ham 「花」 “gul” bilan 「吹雪」 “qor bo’roni” so’zini birga qo’llanilishi kuzatamiz. Yuqorida ko’rib o’tganimizdek, ushbu haikuda umumiy o’xshashlikka asoslangan ma’no ko’chish jarayoni sodir bo’lmoqda. Ya’ni, 「花が散る」 “to’kilayotgan gul” orqali 「吹雪」 “qor bo’roni” ko’z oldida aks etadi degan xulosaga kelinib, metafora jarayoni insonlarning hayotiy tajribasiga asoslangan deyish mumkin.

● 8. 開花宣言もう意地悪な風が待つ (楠 山 東石子)

「開花」 “ochilgan gul” 「意地悪な風」 “yovuz shamol” ta’sirida to’kilib ketadi. Bundan ko’rinadiki, ochilgan gulning umri qisqa va u “o’tkinchilik”ni ifodalaydi. Ya’ni, “gul” asl ma’nosida kengaygan holda “o’tkinchilik” metaforasi bo’lib ishlatilmoqda.

● 9. 猶みたし花に明行神の顔 (松尾芭蕉)

Ushbu haikuda foydalanilgan 「花」 “gul” va 「神の顔」 “xudoning yuzi” jumlasidan, “xudoning yuzi guldek” dega’no ma’no kelib chiqib, “gul” 「美」 “go’zallik” ma’nosida metaforasi bo’lib kelgan.

Yuqorida keltirilgan misolidan xulosa qilib aytganda, zamonaviy haikularda “gul” so’zi “o’tkinchilik”, “qor”, “sovuqni chaqiruvchi” va “go’zallik ramzi” sifatida metafora, ya’ni ko’chma ma’noda qo’llanilgani aniq bo’ldi.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar

➤ “Kokinvakashu” she’riy to’plami tahlili natijasida 「花」 “gul” so’zi asl ma’nosidan kengaygan holda quyidagi ma’nolarda metafora sifatida ishlatilgani aniqlandi:

- 「女性」 “Ayol”
- 「春の訪れのサイン」 “Bahor elchisi”
- 「雪」 “Qor”
- 「人の変わりやすい心」 “Insonning o’zgaruvchan qalbi”
- 「はかなさ」 “O’tkinchilik”

➤ Zamonaviy haikularda esa, 「花」 “gul” tushunchasi

- 「はかなさ」 “O’tkinchilik”
- 「冷」 “Sovuq chaqiruvchi”
- 「雪」 “Qor”
- 「美」 “Go’zallik” ma’nolarida metafora sifatida foydalanilgani aniqlandi.

➤ “Kokinvakashu” va zamonaviy haikularda “gul” tushunchasi “o’tkinchilik” va “qor” ma’nolarida ishlatilish jihatidan o’xshash. Ayniqsa, “o’tkinchilik” sifatida ma’no ko’chishi qadimgi davrdan saqlanib qolgan, degan fikrga kelindi. “Sakura va yaponlar” nomli maqolada “chiroyli to’kilayotgan sakura gulini ko’pchilik yaponlar o’zi bilan ideal hayot tarzini bilan bog’lab, hamdardlik hissini tuyadi. Sakura gulini to’kilishi yaponlar qadimdan qadrlab kelgan buddaviylikdagi o’tkinchilik g’oyasini ko’rishimiz mumkin”¹⁶. Ya’ni, buddaviylikning o’tkinchilik g’oyasi qadimgi o’rta asrlardan bugungacha saqlanib qolganini ko’rishimiz mumkin.

¹⁶ www.life.yumei.jp/sakura/

➤ “Gul” bilan “qor” tushunchalari umumiy o’xshashlikka ega bo’lganligi sababli davr o’zgarishi bu ma’no ko’chishiga ta’sir ko’rsatmagan. Ammo, ikki tushunchaning bog’liqligini ko’rsatib beruvchi so’zlar o’zgargani aniqlandi. Ya’ni, “Kokinvakashu” vakalarida 「降る雪」 “yog’ayotgan qor” va 「散る花」 “to’kilayotgan gul”ni bir vaqtning o’zida qo’llanilishi orqali ular orasidagi o’xshash elementlarni ko’z oldiga keltirish oson qilib berilgan bo’lsa, zamonaviy haikularda bir so’z birikmasi 「花吹雪」 “gul qor bo’roni” orqali “gul”ning “qor” metaforasi bo’lib kelayotganini ko’rishimiz mumkin.

➤ Bundan tashqari, “Kokinvakashu” da ham, zamonaviy haikularda ham “gul” tushunchasi “ayol” va “go’zallik” tushunchalari bilan bog’liqligi va ma’no ko’chganligini aniqlandi. “Ayol” va “go’zallik” tushunchalari davr o’zgarishiga qaramay, an’anaviy metafora qoidasiga binoan “gul” bilan o’xshashlikka ega tushuncha bo’lib qolmoqda.

➤ “Kokinvakashu” to’plamida qo’llanilgan “gul” tushunchasining o’ziga xosligi uning “bahor elchisi” va “insonning o’zgaruvchan qalbi” ma’nolarini ham ifodalashida degan xulosaga kelindi.

➤ Zamonaviy haikularda esa “gul” tushunchasi yangi ma’no, ya’ni 「花冷」 “sovuq chaqiruvchi” tushunchasini ham ifodalashi aniqlandi.

III BOB O'ZBEK VA YAPON SHE'RIYATIDA “GUL” METAFORASI QIYOSI

3.1 O'zbek tilida “gul” metaforasi

Ushbu bobda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari orqali “gul” so'zning metafora sifatida qanday ma'nolarda ishlanilganini ko'rib chiqamiz. Masalan, Navoiyning quyidagi ruboiysi:

1. Dedim: 'Zaqaning tutub saqog'ingni o'pay,
Ko'z-qoshingga surtubon qabog'ingni o'pay,
Guldek yuzing islabon dudog'ingni o'pay,
Yo'q,yo'q,yo'q, agar desang,ayog'ingni o'pay. Navoiy

Bu “gul” so'zi “yuz” bilan birga kelib, “guldek yuzing” ya'ni, “gulga o'xshagan go'zal” → “go'zal yuz” ma'nosida foydalanilganini ko'ramiz. Bunda “go'zallik” ga ma'no kengayadi.

Mashrab g'azallari misolida:

2. Yuzung misli qizil guldur, ko'ngul chun bulbuli shaydo,
Bu gulning ishqidin bulbul chamandin ayrilib bo'lmas.
Kel, ey Mashrab, agar oshiq bo'libsan, bo'lmag'il g'ofil,
Bu g'aflat uyqusidin, ey yoronlar, uyg'onib bo'lmas.

Bu yerda “gul” ikki o'rinda, “yuzing misli qizil gul” va “bu gulning ishqidin” junlalarida ikki xil ma'nodagi “gul” kelganligini aytish mumkin. “Yuzing misli qizil gul” misrasida yorning yuzini gulga o'xshatayotgani, ya'ni “go'zalligini” ta'kidlayotgan bo'lsa, “bu gulning ishqidin” misrasida “ma'shuqa”si ishqida yonayotganini tushunamiz. Ya'ni, ushbu g'azalda “gul” so'zi “go'zallik” va “ma'shuqa” mohiyatiga ko'chirilgan.

3. Zebo sanamim gul yuzidin parda ko'tardi,
Olam hama ko'z bo'ldi tamosho qilayin deb.
Zulfini tarab, qosh uchurub jilvalar etti,
Oshubi balo, fitnani barpo qilayin deb.

Ushbu g'azaldan parchada ham "gul"ning "yuz" bilan kelganini ko'ramiz. "sanamim" so'zining kelishi ma'shuqasining go'zalligini madh etayotganini ko'rsatadi. Natijada "gul" "go'zallik" ma'nosini ifodalab kelgan. Metaforaning ushbu hodisasi umumiylikka asoslangan o'xshatishdir.

Ogahiy g'azali misolida:

4. Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.
Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shomu sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.

Ushbu g'azal parchasida "Ul gul yuzi shavqi" jumlasida "yor yuzining go'zalligidan hayratlanish" degan taassurot paydo bo'lib, "guldek yuzi" ya'ni "o'ta go'zal" degan taassurot qoldiradi.

5. Ul yuzi gul nigorning mehri jamolini ko'ring,
Mehri jamoli ustida ikki hilolini ko'ring.
Ikki hilolini ko'rub qonmasa mehringiz agar,
Safhayi orazi uza nuqtayi xolini ko'ring.

Ushbu g'azalda "gul" so'zi "yuz"ni tasvirlab kelganiga guvoh bo'lamiz. Yuqorida ko'rganimizdek, bu yerda ham "gul" so'zi "go'zallik" ma'nosida metafora bo'lib kelgan.

Nodira g'azali misolida:

6. Gulu lola mavsumida qani yori dilnavozim,
Nazarimdin o'ldi g'oyib sanami suxan tirozim.
Hama saydi orzudur bu jahon shikorgohe,
Netayin qo'limdin uchti bu mahalda shohbozim.

“Gulu lola mavsumi” jumlasini orqali ushbu g'azalda “bahor” ma'nosini ifodalab kelganini tushunish mumkin. Bu g'azalda o'xshashlik emas, balki insonlarning hayotiy tajribasiga asoslangan ma'no ko'chishni ko'ramiz. Ya'ni, shunchaki “bahor” deb aytmasdan “gulu lola mavsumi” degani o'quvchi uchun ya'nada ta'sirli va nutqni, matnni tasavvurga boy, chiroyli chiqishiga yordam beradi.

Sayfi Saroyi g'azali misolida:

7. Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur.
Og'zi fastuq, ko'rki tangsuq, o'zi mushfiq yor erur,
Husning chovi Xitou Chin ichinda bor erur.

Ushbu g'azalda ham “yuz” va “gul” so'zlarini birga ko'ramiz. Lekin boshqalaridan biroz farqli ravishda “gul”ning “yori yuziga zorligi” keltiriladi, ya'ni “gul” chiroyli bo'lsada, yorining “yuzi” undanda go'zal.

Ubaydiy g'azali misolida:

8. Bo'ston aro ochilmag'usi g'unchadin ko'ngul,
Gul mavsumida bodayu paymona bo'lmasa.
G'am kulbasida naylag'ay erding, Ubaydiy,
Soqiyu jomu mutribu paymona bo'lmasa.

Ushbu g'azalda "gul mavsumida" dega jumla inson ongida "bahor" degan tushuncha shakllanishiga olib keladi. Hayotiy tajriba, fasllar almashinishi va u bilan bog'liq o'zgarishlarning inson tasavvurida shakllanib borishi natijasida <bahor> → <gul fasli> shaklida taassurot qoladi. Xuddi shunday "gul mavsumi" deyilganda "bahor" nazarda tutilayotgani anglash qiyin emas.

Yuqorida keltirilgan misollardan xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida "gul" so'zi o'z lug'aviy ma'nosidan kengaygan holda "ma'shuqa yoki yor", "go'zallik" va "bahor" ma'nolarida kelgani aniqlandi. "Go'zallik" ma'nosini ifodalashda gulning xususiyati, "ma'shuqa yoki yor" ma'nosida "gulning" noziklik va chiroylilik xususiyati, "bahor" ma'nosida esa "gul" tushunchasi bilan "bahor" ning umumiylikni ko'rsatib beruvchi hayotiy tajriba yotadi, degan xulosaga kelindi.

3.2 Yapon va o'zbek tilidagi "gul"ning qiyosi

Ushbu qismda 2 bob va 3.1 qismdagi yapon va o'zbek she'riyati misolidagi "gul" tushunchasining ma'noviy kengayishi va ular orasidagi o'xshash va farqni tahlil qilamiz.

Yapon tilida "gul" metaforasi "ayol", "bahor elchisi", "qor", "insonning o'zgaruvchan qalbi", "o'tkinchilik", "sovuqlik", "go'zallik" ma'nolarida keladi. O'zbek tilida esa, "gul" "ma'shuqa", "go'zallik" va "bahor" ma'nolariga ko'chgani kuzatildi.

Yapon tilida "ayol" ma'nosidagi "gul" "ma'shuqa", "qizi", "yosh qiz" ma'nolarida kelgan. Ammo, o'zbek tilida "gul" faqat "ma'shuqa"ni bildiradi. Bu yerda yapon va o'zbek tilidagi o'xshashlik bilan birga farq ham ko'zga tashlanadi. Bunga sabab sifatida o'zbek tilida "gul" tushunchasi asosan muhabbat mavzusidagina ma'no ko'chishini keltirish mumkin.

Yapon va o'zbek tillarida "gul"ning "bahor" tushunchasini anglatib kelishi, ikki davlatda ham 4 faslning mavjudligi va tabiiy iqlim jihatidan bir-biriga yaqinligini

sabab qilib olish mumkin. Chunki atrof- muhit, tabiat tildagi so'zlarning qo'llanilishi, ma'no ko'chirishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, qor yog'maydigan davlat qor so'zi bilan bog'liq birikmalar ham kam uchraydi.

Yapon tilida "gul" "qor" tushunchasini ifodalab kelishi yaponlarning tabiat hodisalariga katta e'tibor qaratishi bilan bog'lash mumkin. Shu fikrning yana bir tasdig'i sifatida "gul" faqat muhabbat mavzusidagi she'rlarda, balki 4 faslga oid she'rlardan ham muhim o'rin egallagan.

O'zbek tilida mavjud bo'lmagan "gul"ning yana bir ma'nosi sifatida yapon tilida "insonning o'zgaruvchan qalbi" metofarasini keltirish mumkin. Bu yerda har bir jamiyatning o'ziga xos tasavvur va tafakkur jarayonidagi farq ta'sirini ko'rish mumkin.

"O'tkinchilik" ma'nosini bildirishda buddaviylik dinining ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Yapon tilida nafaqat "gul", balki "shabnam", "dunyo" so'zlari ham o'tkinchilik ma'nosini bildirishini kuzatamiz. O'zbek tilida esa "o'tkinchilik" ma'nosini tabiat hodisasi orqali bildiruvchi metaforalarni topish qiyin degan xulosaga kelinadi.

Yapon tilida "gul"ning "sovuqlik" tushunchasi bilan ifodalanishi ham Yaponiyaning o'ziga xos tabiati bilan bog'liq deyish mumkin. O'zbekiston bilan solishtirganda bahor oyi bir muncha salqin bo'lgani, aprel oyida sakura gulining gullashi oldidan yomg'irning ko'p yog'ishi ushbu o'xshatish jarayoni asosi bo'lib xizmat qiladi.

Va nihoyat so'nggi "go'zallik" ramzi sifatida "gul"ning keltirilishi har ikki tilda mavjud. Bu hodisa qaysi jamiyat bo'lishidan qat'iy nazar gulni ko'rganda go'zallikni his qilish bilan bog'liq bo'lib, Chie Fukada nazariyasiga ko'ra hissiyot asosidagi metafora deyish mumkin.

Uchinchi bob yuzasidan xulosalar:

- O'zbek she'riyatida "gul" metaforasi 3 ma'noda: "ma'shuqa", "go'zallik" va "bahor" ma'nolarida ishlatilishi misollar tahlili vositasida aniqlandi.
- Yapon va o'zbek sha'rlari tahlili natijasida o'zbek tilidagi metaforalar yapon tilida ham mavjudligi, ammo yapon tilida ham o'ziga xos metaforalar mavjudligi aniqlandi.
- Yapon tilida mavjud metaforalarning o'zbek tilida yo'qligi yapon tabiatining o'ziga xosligi, "gul"ning nafaqat muhabbat mavzusidagi she'rlarda, balki fasllarga oid she'rlarda ham metafora sifatida kelishi bilan ham bog'liq degan xulosaga kelindi.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishida olib borilgan yapon va o'zbek tillaridagi "gul" metaforasi tahlili natijasiga asoslangan holda quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Har bir tilda lug'aviy ma'no bilan ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlar mavjud. Tilda ma'no ko'chirishning 7 turi mavjud bo'lib shulardan biri metafora hisoblanadi.

2. An'anaviy metaforada umumiy o'xshashlik asosiy rol o'ynagan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikda inson tajribasi va borliqga munosabati, baho berishidan kelib chiqib metafora jarayoni sodir bo'lishi va konseptuallashtirilgan metafora deb atalishi aniqlandi.

3. Yapon mumtoz adabiy asari "Kokinwakashu" she'riy to'plamidagi gulga aloqador vakalar tahlili natijasida "gul" metaforasi quyidagi ma'nolarda kelgani aniqlandi:

- "Ayol"
- "Bahor elchisi"
- "Qor"
- "Insonning o'zgaruvchan qalbi"
- "O'tkinchilik"

4. Zamonaviy haikular tahlili natijasida "gul" quyidagi ma'nolarda metafora bo'lib kelgani aniqlandi:

- "O'tkinchilik"
- "Sovuqlik"
- "Qor"
- "Go'zallik" ma'nolarini ifodalagan.

5. O'rta asrlar she'riy to'plami va zamonaviy haikular tahlili natijasida "gul" tushunchasi "o'tkinchilik" va "qor" ma'nolarida ishlatilish jihatidan o'xshash.

Ayniqsa, “o’tkinchilik” sifatida ma’no ko’chishi qadimgi davrdan saqlanib qolgan, degan fikrga kelindi.

6. “Gul” bilan “qor” tushunchalari umuuniy o’xshashlikka ega bo’lganligi sababli davr o’zgarishi bu ma’no ko’chishiga ta’sir ko’rsatmaganligi aniqlandi.

7. Bundan tashqari, “Kokinvakashu” da ham, zamonaviy haikularda ham “gul” tushunchasi “ayol” va “go’zallik” tushunchalari bilan bog’liqligi va ma’no ko’chganligini aniqlandi. “Ayol” va “go’zallik” tushunchalari davr o’zgarishiga qaramay, an’anaviy metafora qoidasiga binoan “gul” bilan o’xshashlikka ega tushuncha bo’lib qolmoqda.

8. “Kokinvakashu” to’plamida qo’llanilgan “gul” tushunchasining o’ziga xosligi uning “bahor elchisi” va “insonning o’zgaruvchan qalbi” ma’nolarini ham ifodalashida degan xulosaga kelindi.

9. O’zbek she’riyatida “gul” metaforasi 3 ma’noda: “ma’shuqa”, “go’zallik” va “bahor” ma’nolarida ishlatilishi misollar tahlili vositasida aniqlandi.

10. Yapon va o’zbek sha’rlari tahlili natijasida o’zbek tilidagi metaforalar yapon tilida ham mavjudligi, ammo yapon tilida ham o’ziga xos metaforalar mavjudligi aniqlandi.

11. Yapon va o’zbek tillaridagi “gul” metaforasidagi farqi ikki davlatning tabiiy sharoiti va tafakkur jarayonidagi farq, turmush tarzi va atrof-muhitga munosabatidagi farqlar sabab bo’ladi, degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari

1. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», «Ma'naviyat», Toshkent, 2008.
2. Karimov I.A. “Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat” O'zbekiston , 2006.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

3. Tursunov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent, 1992.
4. Hamroyev M.A. Ona tili – Toshkent, 2009.

Ilmiy dissertatsiyalar:

5. Qobuljonova G.K. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini – Toshkent, 2000
6. Abdullayeva S. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarining leksik-semantik xususiyatlari – Navoiy 2013

Yapon tilidagi adabiyotlar:

7. 国語教育プロジェクト編集「新国語便覧」2010 年, 文英堂
8. 小長五市麻など「日本文学史の指導と実際」昭和 35 年 7 月 10 日
9. 「新編日本古典文学全集 1 1 (1994)」p.35
10. 谷口一美「認知意味論の新展開」2003 年 8 月 15 日 研究社
11. 中野弘三「意味論」2012 年 8 月 30 日 朝倉邦造
12. 『につぽにか』2010 №2 2010 年 11 月 25 日 日本国外務省

13. 日本古典文学全集 11「古今和歌集」1994年2月20日 小学館
14. 左咏梅「『上』と『下』のメタファーについて ―日中対照研究―」
杏林大学大学院国際協力研究科『大学院論文集』№4, 2007.3
15. 深田智、仲本康一郎「概念化と意味の世界」2008年5月30日 研究社
16. 町田健「認知意味論のしくみ」2002年2月1日 研究社
17. 南雅彦「『言語と文化 言語学から読み解くことばのバリエーション』」2011年5月
18. 山梨正明「比喩と理解」1988年3月25日 東京大学出版会

Internet manbali:

19. 言語科学総論資料 (5)「言語相対論の視座」<http://lapin.ic.h.kyoto-u.ac.jp/LangScience/handout6.pdf>
20. 「花のまわりみち」http://www.mint.go.jp/enjoy/mawarimichi/sakura-hiroshima_haisen.html
21. いろは歌 www.buddhism.ne.jp
22. ことわざ学習室 http://kotowaza.avaloky.com/pv_senyo02.html
23. コトバンク www.kotobank.jp/word/ 古今和歌集
24. http://www.fukuoka-pu.ac.jp/kiyou/kiyo17_2/1702_fukuda.pdf
25. https://dspace.wul.waseda.ac.jp/dspace/bitstream/2065/42880/1/KokubungakuKenkyu_61_Kato.pdf
26. http://www.osaka-geidai.ac.jp/geidai/laboratory/kiyou/pdf/kiyou18/kiyou18_07.pdf
27. www.ziyouz.com
28. http://www.rusnauka.com/18_DNI_2010/Philologia/69429.doc.htm